

2017-2024 YILLARDA BUXORO VILOYATIDA O'RTA MAXSUS TA'LIM TIZIMIDAGI O'ZGARISHLAR

Tursunpulatova Barchinoy Safo qizi,

Aniq va ijtimoiy fanlar universiteti

Tarix yo'nalishi 2 kurs magistranti

Email: BarchinoyTursunpo'latova1995@mail.ru

Тел: +998909722795

Annotatsiya

Mazkur maqolada 2017-2024 yillarda Buxoro viloyatida o'rta maxsus ta'lim tizimining rivoji, erishilgan yutuqlar va mavjud muammolar tahlil qilingan. Ushbu davrda o'rta maxsus professional ta'lim tizimi sifatini oshirishga qaratilgan islohotlar, xususan, akademik litsey, kasb-hunar maktablari, texnikum va kollejlarning faoliyati, ularning moddiy-texnik bazasini mustahkamlash choralari ko'rib chiqilgan. Shuningdek, viloyatdagi professional ta'lim muassasalari o'quvchi va o'qituvchilari tarkibi va qamrovi, hududlar kesimida taqsimotiga oid statistik ma'lumotlar tahlil qilingan.

Kalit so'zlar: Buxoro viloyati, professional ta'lim, ta'lim tizimi, islohotlar, standart, akademik litsey, texnikum, kollej, kasb-hunar maktabi

ИЗМЕНЕНИЯ В СИСТЕМЕ СРЕДНЕГО СПЕЦИАЛЬНОГО ОБРАЗОВАНИЯ БУХАРСКОЙ ОБЛАСТИ В 2017-2024 ГОДАХ

Аннотация

В статье анализируется развитие, достижения и актуальные проблемы системы среднего специального образования Бухарской области в 2017-2024 годах. В этот период рассматривались реформы, направленные на повышение качества системы среднего специального профессионального образования, в частности, меры по укреплению деятельности академических лицеев, профессиональных училищ, техникумов и колледжей, их материально-технической базы. Также были проанализированы статистические данные о составе и охвате студентов и преподавателей профессиональных образовательных организаций региона, а также их распределение по регионам.

Ключевые слова: Бухарская область, профессиональное образование, система образования, реформы, стандарт, академический лицей, техникум, колледж, ПТУ

CHANGES IN THE SECONDARY SPECIALIZED EDUCATION SYSTEM IN BUKHARA REGION IN 2017-2024

Abstract

This article analyzes the development of the secondary specialized education system in the Bukhara region in 2017-2024, its achievements and current problems. During this period, reforms aimed at improving the quality of the secondary specialized professional education system were considered, in particular, the activities of academic lyceums, vocational schools, technical schools and colleges, and measures to strengthen their material and technical base. Statistical data on the composition and scope of students and teachers of professional educational institutions in the region, their distribution by region, were also analyzed.

Keywords: Bukhara region, professional education, education system, reforms, standard, academic lyceum, technical school, college, vocational school.

Kirish. Professional ta'lim tizimini ilg'or xorijiy tajribalar asosida takomillashtirish, boshlang'ich, o'rta va o'rta maxsus professional ta'lim bosqichlarini joriy qilish orqali mehnat bozori uchun malakali va raqobatbardosh kadrlar tayyorlash hamda mazkur jarayonga ish beruvchilarni keng jalb qilish maqsadida, 2020/2021 o'quv yilidan boshlab O'zbekiston Respublikasida Ta'limning xalqaro standart tasniflagichi (TXST) darajalari bilan uyg'unlashgan yangi boshlang'ich, o'rta va o'rta maxsus professional ta'lim tizimi hamda tabaqalashtirilgan ta'lim dasturlari joriy etiladigan ta'lim muassasalari tarmog'i tashkil etildi.

Milliy ta'lim tizimlarining tuzilishi va ta'lim dasturlari mazmuni xilma-xilligi tufayli turli mamlakatlarning erishgan natijalarini taqqoslash solishtirish va ularning milliy va xalqaro miqyosdagi maqsadlar sari olg'a siljishini kuzatish qiyin bo'lishi mumkin. Global miqyosda ta'lim tizimlarining jihatlari va jarayonlarini tushunish va to'g'ri talqin qilish uchun ma'lumotlarning solishtirilishini ta'minlash ayniqsa muhimdir. Bunga xalqaro miqyosda taqqoslanadigan statistik ma'lumotlarni tasniflash va taqdim etish uchun kontseptual hujjat - Ta'limning Xalqaro Standart Klassifikatsiyasidan (TXST) foydalanish orqali erishish mumkin.

TXST-2011 tasnifi 2011- yil noyabr oyida YUNESKO Bosh konferensiyasining 36-sessiyasida qabul qilingan. Dastlab YUNESKO tomonidan 1970- yillarda ishlab chiqilgan va birinchi marta 1997- yilda qayta ko'rib chiqilgan TXST tasnifi milliy va xalqaro miqyosda ta'lim statistikasini yig'ish va taqdim etish uchun vosita bo'lib xizmat qiladi. Ushbu hujjat butun dunyo bo'ylab ta'lim tizimidagi yangiliklarni yanada aniqroq aks ettirish uchun vaqti-vaqti bilan yangilanib turiladi.

O'rta maxsus, kasb-hunar ta'limi muassasalari tizimi – boshlang'ich, o'rta va o'rta maxsus professional, kasb-hunar ta'limi maqsadi va vazifalarini amalga oshirish

uchun zarur tashkiliy, o'quv-metodik, moddiy-texnik va psixologik-pedagogik shart-sharoitlarni ta'minlaydigan akademik litseylar, kasb-hunar maktablari, kollejlari, texnikumlardan iborat bo'ladi.

Professional ta'lim – ta'lim oluvchilarda ma'lum bir mutaxassislik va kasblar bo'yicha kasbiy kompetentsiyalarni shakllantiradigan va rivojlantiradigan uzluksiz ta'lim tizimi. Professional ta'lim quyidagi 3 ta turga bo'linadi: boshlang'ich professional ta'lim; o'rta professional ta'lim; o'rta maxsus professional ta'lim.

Boshlang'ich professional ta'lim kasb-hunar maktablarida IX sinf bitiruvchilari negizida bepul asosda kunduzgi ta'lim shakli bo'yicha umumta'lim fanlarining va mutaxassislik fanlarining ikki yillik integratsiyalashgan dasturlari asosida amalga oshiriladi.

O'rta professional ta'lim kollejlarda davlat buyurtmasi yoki to'lov-shartnoma asosida kasblar hamda mutaxassisliklarning murakkabligidan kelib chiqqan holda, davomiyligi ikki yilgacha bo'lgan kunduzgi, kechki va sirtqi ta'lim shakllari bo'yicha umumiy o'rta, o'rta maxsus ta'lim hamda boshlang'ich professional ta'lim negizida amalga oshiriladi.

O'rta maxsus professional ta'lim texnikumlarda umumiy o'rta, o'rta maxsus, boshlang'ich professional va o'rta professional ta'lim negizida davlat buyurtmasi yoki to'lov-shartnoma asosida kasblar hamda mutaxassisliklarning murakkabligidan kelib chiqqan holda, davomiyligi kamida ikki yil bo'lgan kunduzgi, kechki va sirtqi ta'lim shakllari bo'yicha amalga oshiriladi.

O'rta maxsus ta'lim akademik litseylarda to'qqiz yillik tayanch o'rta ta'lim asosida ikki yil mobaynida amalga oshiriladi va ta'lim oluvchilarning intellektual qobiliyatlarining jadal rivojlanishini, shuningdek chuqur, tabaqalashtirilgan, kasb-hunarga va shaxsga yo'naltirilgan ta'lim olishini ta'minlaydi.

Akademik litsey – uzluksiz ta'lim tizimining asosiy bo'g'ini hisoblanadi va O'zbekiston Respublikasining barcha fuqarolariga davlat umumta'limi andozalari doirasida bepul umumiy ta'lim olishning kafolatlangan huquqi va imkoniyatini beradi.

O'rta maxsus ta'lim muassasalarida o'quvchilarning umumiy haftalik yuklamasi 54 soatni, shundan 38-40 soati auditoriya yuklamasini va 16-14 mustaqil ishni tashkil etadi. Barcha o'quv mashg'ulotlari uchun ikki akademik o'quv soati davomiyligi 80 daqiqa etib belgilanadi [1].

Respublikada 2015 yilda 143 ta akademik litsey, 1406 ta kasb-hunar kollejlari faoliyat yuritgan [2]. Keyingi yillarda akademik litseylar soni kamayib bordi. Jumladan, 2018 yilda 123 ta, 2019 yilda 92 ta, 2020 yilda 86 ta va 2021 yilda ham 86 tani tashkil etgan. 2020-2021 va 2021-2022 o'quv yilida hududlar kesimida akademik litseylar soni quyidagicha bo'lgan: Toshkent shahri 30-28 ta, Xorazm 5-4 ta, Farg'ona 5-5 ta, Toshkent viloyati 3-3 ta, Sirdaryo viloyati – 2-3 ta, Surxondaryo viloyati – 3-4 ta, Samarqand viloyati – 9-8 ta, Namangan viloyati – 4-3 ta, Navoiy viloyati – 3-3 ta,

Qashqadaryo viloyati – 5-7 ta, Jizzax viloyati – 3-3 ta, Buxoro viloyati – 4-4 ta, Andijon viloyati – 5-5 ta va Qoraqalpog'iston Respublikasi – 5-6 ta [3]. Respublika bo'yicha litseylar soni bo'yicha eng yuqori ko'rsatkich Toshkent shahri, eng past ko'rsatkich esa Sirdaryo viloyatiga to'g'ri kelgan.

2015 yilda Buxoro viloyatida 8 ta akademik litsey va 80 ta kasb-hunar kolleji mavjud edi [2]. 2018-2021 yillarda esa viloyatda akademik litseylar soni quyidagicha bo'lgan: 2018 yilda 6 ta, 2019, 2020 va 2021 yillarda 4 ta. 2020-2022 yillar davomida viloyatda akademik litseyla esa hududlar bo'yicha faqat Buxoro shahar va Qorako'l tumanlarida mavjud bo'lgan [4]. Jumladan, 2020-2021 o'quv yilida Buxoro shahrida 3 ta, Qorako'l tumanida 1 ta bo'lib, 2021-2022 o'quv yilida ham ushbu raqamlar saqlanib qoldi.

Kasb-hunar maktabi xalqaro tasniflagichning 3-darajasiga mos keluvchi ta'lim dasturlari asosida 9-sinf bitiruvchilarini ijtimoiy qo'llab-quvvatlashga qaratilgan boshlang'ich professional ta'lim bosqichida kadrlar tayyorlaydigan ta'lim muassasasi hisoblanadi. 2021/2022 o'quv yili boshida madaniyat va san'at maktablarini ham qo'shgan holda Buxoro viloyatida 20 ta kasb-hunar maktablari mavjud bo'lib, ularning eng ko'p soni G'ijduvon tumanida (3 ta) qayd etilgan. Qolgan shahar va tumanlarda 1-2 tadan mavjud bo'lgan [4].

Shuningdek, mazkur yillarda viloyatda oldingi yillardagi kabi kollejlarda ham faoliyat ko'rsatgan. Kollejlarda xalqaro tasniflagichning 4-darajasiga mos keluvchi ta'lim dasturlari asosida o'rta professional ta'lim bosqichida kadrlar tayyorlaydigan ta'lim muassasalari hisoblanadi. 2021/2022 o'quv yili boshida Buxoro viloyatida 12 ta kollej mavjud bo'lib, hududlar bo'yicha eng ko'pi Buxoro shahrida (4 birlik), eng kam Kogon shahrida (1 birlik) qayd etilgan. Viloyatdagi mavjud kollejlarga Buxoro irrigatsiya va melioratsiya kasb-hunar kolleji, Buxoro neft va gaz sanoati kolleji, Buxoro pedagogika kolleji, Buxoro politexnika kasb-hunar kolleji, Buxoro qurilish va milliy hunarmandchilik kasb-hunar kolleji, Buxoro turizm kasb-hunar kolleji, Kogon maktabgacha ta'lim va xizmat ko'rsatish kolleji va boshqalarni misol qilib keltirib o'tishimiz mumkin [5].

Respublika bo'yicha 2020-2021 o'quv yilida kollejlarda soni 206 tani tashkil etgan [3]. Statistika agentligi ma'lumotlariga ko'ra, 2023/2024-o'quv yili boshida O'zbekiston Respublikasida faoliyat yuritayotgan kollejlarda soni 153 tani tashkil etgan. Bu ko'rsatkich: 2021/2022-o'quv yili boshida – 184 ta; 2022/2023-o'quv yili boshida –183 tani tashkil etgan [6].

Texnikum bu xalqaro tasniflagichning 5-darajasiga mos keluvchi ta'lim dasturlari asosida oliy ta'lim tizimi bilan integratsiyalashgan o'rta maxsus professional ta'lim bosqichida kadrlar tayyorlaydigan, oliy ta'lim muassasalari huzurida faoliyat yuritadigan ta'lim muassasalari hisoblanadi. Buxoro viloyatida 2021/2022 o'quv yili boshida texnikumlar soni 14 tani tashkil etdi, 2020/2021 o'quv yili (11 ta) boshiga

nisbatan 3 taga ko'paydi. Hududlar kesimida ko'payish faqat Buxoro shahri (5 tadan 6 taga) va Shofirkon (1 tadan 3 taga) tumanida bo'lib, qolgan hududlarda texnikumlar sonida o'zgarish kuzatilmadi [4].

Viloyatdagi mavjud professional ta'lim tashkilotlaridagi o'quvchilar soni bir-biridan farq qilgan. Xususan, akademik litseylarda tahsil olayotgan o'quvchilar soni 2016 yildan 2021 yilgacha bo'lgan davr mobaynida kamayib bordi. Jumladan, 2016 yilda 5,5 ming, 2017 yilda 4,4 ming, 2018 yilda 3,7 ming, 2019 yilda 2,2 ming, 2020 yilda 2,1 ming va 2021 yilda 1,9 ming nafarni tashkil etgan. 2021-2022 o'quv yilida o'quvchilar soni 2020-2021 o'quv yili bilan bir xil bo'lgan. Akademik litsey o'quvchilari kamayib borishiga sabab sifatida davlatimizda 12 yillikdan ta'limdan 11 yillik ta'limga qaytish, maktablarda 10-11 sinflarning qaytadan yo'lga qo'yilishi bilan bog'lash mumkin. Shuningdek, respublika bo'ylab kollejlari, texnikum va kasb-hunar maktablari tashkil etilishi bilan ham bog'liq.

2021/2022 o'quv yili boshida kasb-hunar ta'limi muassasalarida 9,3 ming o'quvchi tahsil olib, hududlar bo'yicha eng yuqori ko'rsatkich G'ijduvon tumanida – 1,6 ming nafar, eng kam Kogon tumanida – 0,3 ming nafar. Mazkur davrda Buxoro viloyatidagi 12 ta kollejdada esa 6,7 ming nafar o'quvchi tahsil olib, eng yuqori ko'rsatkich G'ijduvon tumanida (2,2 ming o'quvchi), eng kam ko'rsatkich Buxoro tumanida (0,2 ming kishi) qayd etilgan. Viloyatdagi akademik litseylarda o'quvchilar soni kamayishi kuzatilgan bo'lsa, kollejlarda aksincha o'sib bordi. Jumladan, 2020-2021 yilda 3,9 mingdan 2021-2022 o'quv yilida 6,7 ming nafarni tashkil etgan [4].

Texnikumlardagi o'quvchilar soni ham o'zgarib turdi. Jumladan, 2020-2021 o'quv yilida 3,3 ming nafarni tashkil etsa, 2021-2022 o'quv yilida 6,6 ming nafarga yetdi. 2021/2022 o'quv yili boshida Buxoro viloyatidagi texnikumlarda 6,6 ming talaba tahsil olib, eng yuqori ko'rsatkich Buxoro shahrida (3,4 ming), eng past ko'rsatkich Vobkent tumanida (0,1 ming) qayd etilgan.

2022 yilda viloyatdagi akademik litseylar o'quvchilar sonining hududlar kesimida taqsimotida 1529 nafar o'quvchi Buxoro shahriga va 406 nafar o'quvchi esa Qorako'l tumaniga to'g'ri kelgan. Viloyatning qolgan tumanlari va shaharlarida akademik litseylar faoliyat ko'rsatmagan. Agar akademik litseylardagi barcha o'quvchilarni 100 foiz deb olinsa, ularning 35,0% qizlar, 65,0%ini o'g'il bolalar tashkil etgan. Ya'ni, o'g'il bolalar foizi qiz bolalarga nisbatan deyarli 2 baravar ko'proq bo'lgan. Kasb-hunar ta'limi muassasalarida ham o'g'il bolalar qiz bolalarga nisbatan 3 baravar ko'proq bo'lib, barcha o'quvchilarning 25,0 foizini qizlar, 75,0 foizini o'g'il bolalar tashkil etgan. Hududlar kesimida esa eng ko'p kasb-hunar ta'limi muassasalari G'ijduvon tumanida bo'lganligi sababli o'g'il va qiz bolalar foizi qolgan tumanlarga nisbatan yuqoriroq bo'lgan [4].

Yuqorida ta'kidlaganimizdek, 2016 yildan 2022 yilgacha bo'lgan davr mobaynida litsey o'quvchilari kamayib borishiga mutanosib ravishda ulardagi

o'qituvchilar sonida ham pasayish kuzatildi. Jumladan, 2021-yilda akademik litseylarda dars beradigan o'qituvchilar soni 2020-yilga nisbatan 16 nafarga yoki 7,5 foizga kamaydi va 197 nafarni tashkil etdi. Ya'ni, 2020-2021 o'quv yilidagi 213 nafardan 2021-2022 o'quv yilida 197 nafarga tushib, bunda hududlar kesimida Qorako'l tumanida 46 nafardan 41 nafarga, Buxoro shahrida esa 167 nafardan 156 nafarga kamaygan.

2022 yilda respublika bo'yicha akademik litseylarda jami o'qituvchilar soni 100 foiz deb olinsa, ularning 56,6 foizini ayollar, 43,4 foizini erkaklar tashkil etgan. Hududlar kesimida eng yuqori ko'rsatkich Toshkent shahrida (50 nafar ayol va 34 nafar erkak), eng past ko'rsatkich esa Toshkent viloyatida (596 nafar ayol va 327 nafar erkak) bo'lib, Buxoro viloyatida 108 nafari ayol va 89 nafarini erkak o'qituvchilar tashkil etgan. [3]

Kasb-hunar maktablarida esa aksincha o'qituvchilar sonining ortib borishi kuzatilgan. Jumladan, 2021-yilda kasb-hunar maktablarida dars beradigan o'qituvchilar soni (317 nafar) 2020-yilga nisbatan 346 nafarga yoki 2,1 barobarga ko'payib, 663 nafarni tashkil etgan. Hududlar kesimida eng ko'p o'qituvchilar Vobkent tumanida – 117 nafar, eng kami – Qorovul bozor tumanida – 17 kishi qayd etilgan. Kollejlar o'qituvchilar soni ham kamayib borgan. Xususan, 2021/2022 o'quv yili boshida kollejlarda 254 nafar (o'rindoshlarsiz) o'qituvchilar faoliyat ko'rsatmoqda, bu ko'rsatkich 2020-yilga nisbatan (2020-yilda – 267 nafar) 13 nafarga kamaygan. Hududlar kesimida kamayishning eng yuqori ko'rsatkich G'ijduvon (83 tadan 51 taga) va Buxoro (36 tadan 6 taga) tumanlarida, eng past ko'rsatkich esa Vobkent tumanida (14 tadan 13 taga) bo'lib, Shofirkon tumanida (14 taga 14 ta) o'zgarish kuzatilmagan [4].

2021/2022 o'quv yili boshida texnikumlarda 269 nafar o'qituvchi faoliyat yuritgan, bu o'tgan o'quv yiliga (218 nafar) nisbatan 1,2 barobar (51 ta) ko'pdir. Hududlar kesimida eng ko'p o'qituvchilar Buxoro shahrida – 149 nafar, eng kami – Vobkent tumanida – 5 nafar qayd etildi.

Xullas, 2017-2022 yillar davomida o'rta maxsus ta'lim tizimida oldingi yillarga nisbatan o'zgarishlar bo'ldi. Buni 2017 yildan keyin respublikamizda 12 yillik ta'limga 11 yillik ta'limga qaytilishi, professional ta'lim boshlang'ich professional ta'lim; o'rta professional ta'lim; o'rta maxsus professional ta'lim kabi 3 ta turga bo'linishida ko'rishimiz mumkin. Mazkur yillarda Buxoro viloyatida akademik litseylar, kollejlar miqdori va ularning o'quvchilari, o'qituvchilari sonida kamayish, kasb-hunar maktablari, texnikumlarda esa aksincha yuqorilash kuzatilib, o'quv-reja, dastur va ta'lim berish standartlari zamonaviy talablar asosida yangilanib chiqildi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. [46-2021-сон 17.12.2021. O'z Dst 3596:2021 "O'rta maxsus ta'limning davlat ta'lim standarti" O'zbekiston Respublikasining davlat standartini tasdiqlash to'g'risida](#)
2. [google.uz /o'rta maxsus ta'lim](#)
3. O'zbekiston Respublikasida o'rta maxsus, professional ta'lim faoliyatining asosiy stasistik ko'rsatkichlari (2022 yil 1-yanvar holatiga). O'zbekiston Respublikasi davlat statistika qo'mitasi. – Toshkent, 2022 y. 4-bet.
4. Buxoro viloyatida o'rta maxsus, professional ta'lim faoliyatining asosiy stasistik ko'rsatkichlari (2022 yil 1-yanvar holatiga). Buxoro viloyati statistika boshqarmasi. – Buxoro, 2022 y. 4-bet.
5. <http://kasbtanla.uz/viloyat/vfull?id=12>
6. [O'zbekistonda joriy o'quv yilida kollejlarda soni keskin kamaydi](#)
7. Подведены итоги деятельности системы дошкольного образования в Узбекистане за первое полугодие 2023 года (юз.уз).